

**TALABALARNING TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI PODKAST
VA AUDIO MATNLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
milliy universiteti Jizzax filiali*

Ilmiy rahbar: Xaydarova Shoira Toxir qizi

shoiraxaydarova@mail.ru

404-22-guruh talabasi:

O'razboyev Javohir Shuhrat o'g'li

orazboyevjavohir432@gmail.com

Telefon: +998931122213

Annotatsiya: Mazkur maqolada chet tilini o'qitish jarayonida tinglab tushunish ko'nikmasining tutgan o'rni hamda uning o'quvchilarning nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritib berilgan. Tadqiqotda tinglab tushunish ko'nikmasi til o'rganish jarayonining asosiy komponentlaridan biri sifatida talqin qilinib, ayniqsa audio materiallar, jumladan, podkastlar va audio matnlarning samaradorligi batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, tinglab tushunish jarayonida talabalar lug'at boyligini oshirishi, grammatik va leksik birliklarni amaliy muloqotda qo'llashni o'rganishi ilmiy asoslarda izohlanadi. Podkastlarning qisqa, mazmunli va autentik bo'lishi o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi hamda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Maqolada audio materiallarni tanlash, ularni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, interaktiv mashqlar bilan boyitish, shuningdek, baholash va monitoring tizimini joriy etish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Tinglab tushunish, audio resurslar, podkastlar, kommunikativ kompetensiya, nutqiy malaka.

Kirish: Bugungi kunda chet tilini mukammal egallash shaxsning ta'limiy va kasbiy rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Til o'rganish jarayoni faqat grammatik qoidalar yoki lug'at boyligini egallash bilan cheklanib qolmay, balki real muloqotda til birliklaridan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. Shu jihatdan qaraganda, tinglab tushunish ko'nikmasi chet tilini o'qitish jarayonining markaziy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan eshitish orqali o'quvchi tilning tabiiy muhitini, nutqning real tezligini, talaffuz va intonatsiya xususiyatlarini anglaydi hamda muloqotga kirishish uchun zarur bo'lgan asosiy tayyorgarlikka ega bo'ladi.

Zamonaviy metodik yondashuvlarda tinglab tushunish passiv jarayon sifatida emas, balki faol va interaktiv nutqiy faoliyat sifatida talqin etilmoqda. Audio

materiallar, xususan, podkastlar va autentik audio matnlar o'quvchilarga tilni tabiiy shaklda idrok etish, turli nutqiy vaziyatlarni tushunish va ularga mos ravishda javob qaytarish imkonini beradi. Shu sababli, tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish masalasi bugungi chet tilini o'qitish nazariyasi va amaliyotida dolzarb ilmiy muammo sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada aynan ushbu masalaning nazariy asoslari hamda audio resurslardan foydalanish orqali tinglab tushunish ko'nikmasini samarali rivojlantirish yo'llari atroflicha tahlil qilinadi. Eshitish orqali idrok etish til o'rganish jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism: Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish bugungi kunda chet tilini o'qitish jarayonida eng dolzarb va samarali yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Til o'rganishning barcha komponentlari orasida tinglab tushunish ko'nikmasi o'quvchilarning nutqiy malakalarini shakllantirishda asosiy ro'l o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalar eshitish orqali olingan ma'lumotni faqat idrok etmay, balki unga reaksiyalar berish, suhbatga kirishish va nutqni to'g'ri tashkil etishni ham o'rganadilar. Shu nuqtayi nazardan, til o'qitish jarayonida audio resurslar, xususan podkastlar va audio matnlardan foydalanish o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Tinglab tushunish ko'nikmasi nafaqat nutqni anglash, balki ma'lumotni mantiqan tartibga solish, leksik va grammatik elementlarni aniqlash va ularni amaliy muloqotda qo'llash imkonini beradi.¹ Shu nuqtayi nazardan, podkastlar va audio matnlar o'quvchilarga turli aksentlar va talaffuz shakllarini tinglash imkoniyatini beradi, bu esa ularning tilga nisbatan sezuvchanligini oshiradi. Audio materiallar asosida olib borilgan darslar talabalar eshitish qobiliyatini oshiradi va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi.²

Tinglab tushunish ko'nikmasi nutqiy malakalarni shakllantirishning asosiy vositasi bo'lib, u talabalarning muloqotga tayyorligini oshiradi. Tinglab tushunish jarayonida o'quvchilar real nutqning tezligi, talaffuzi va intonatsiya xususiyatlari bilan tanishadi.³ Bu esa ularda so'z boyligi va nutqiy strategiyalarni mustahkamlash imkonini beradi. Podkastlar qisqa va mazmunli bo'lgani sababli talabalarda motivatsiyani oshiradi, dars jarayonini qiziqarli qiladi va mustaqil o'rganishga undab boradi. Bundan tashqari, audio matnlar turli mavzularni qamrab oladi, bu esa o'quvchilarning kontekstni idrok etish va turli vaziyatlarda nutqni to'g'ri ishlatish qobiliyatini shakllantiradi. Audio materiallarni o'quvchilarni nutqiy interaktiv

¹Jalolov, J.J. (2012) – *Chet tillarni o'qitish metodikasi*, Toshkent: O'qituvchi, 2012, 45-b., 78-b.

²To'xtaxo'jayeva, M.O. (2018) – Xorijiy tilni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Toshkent, 2018, 112-b., 145-b.

³Richards, J.C. (2006) – *Communicative Language Teaching*, Cambridge University Press, 2006, 45-b., 78-b.

jarayonlarga jalb qilish, eshitilgan ma'lumotni qayta ishlash va tahlil qilish uchun samarali vosita sifatida baholaydilar.

Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirish jarayonida audio materiallarni tanlashda pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Podkast va audio matnlar mavzusi o'quvchilarning qiziqishiga mos bo'lishi, mazmuni esa dars maqsadlariga muvofiq bo'lishi lozim. Til o'rganish jarayonida eshitish va tushunish ko'nikmasini shakllantirish metodik jihatdan rejalashtirilishi kerak. Audio materiallarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, mavzularni talabalarning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish va darsdan tashqari mustaqil shug'ullana olish qobiliyatini oshiradi. Tinglab tushunish jarayonida o'quvchilarning nutqiy javob berish qobiliyatini oshirish va ma'lumotni qayta ishlash uchun interaktiv mashqlarni kiritishni tavsiya qiladi. Podkastlar asosida tashkil etilgan mashqlar o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi, ularning eshitilgan matnni mantiqan qayta ishlashimkonini beradi. Shuningdek, talabalar turli kontekst va mavzularda nutqiystrategiyalarni qo'llash orqali kommunikativ malakalarini mustahkamlashadi. Shuningdek, Sharipov o'z tadqiqotlarida podkast va audio matnlar talabalarning eshitish orqali tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligini qayd etadi.⁴

Audio materiallar va podkastlardan samarali foydalanishning yana bir muhim jihati – bu o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. To'g'ri tanlangan podkastlar talabalarga darsdan tashqari ham til bilan shug'ullanish imkonini beradi, bu esa ularning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va doimiy mashq qilishni ta'minlaydi. Audio materiallardan foydalanish o'quvchilarning eshitib tushunish va nutqiy faoliyat ko'nikmalarini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, podkast va audio matnlar bilan ishlash o'quvchilarda so'z boyligini oshirishga, talaffuzni to'g'irilashga va nutq intonatsiyasini yaxshilashga yordam beradi. Tinglab tushunish ko'nikmasi muloqotdagi asosiy vosita bo'lib, uni rivojlantirish uchun audio resurslar va autentik matnlardan muntazam foydalanish muhimdir.⁵ Audio materiallar orqali nutqiy vazifalarni bajarish talabalar nutqini yanada aniq va ravon qiladi. Shuningdek audio materiallar bilan shug'ullanish talabalarning mustaqil fikrlashini oshiradi, ular tinglagan matn bo'yicha muhokama va tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Talabalar tinglagan matnni tahlil qilish, asosiy va yordamchi ma'lumotlarni ajratish, kontekstni tushunish kabi strategiyalarni qo'llash orqali nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantiradilar. Eshitish orqali tilni o'zlashtirish nazariyasi doirasida audio materiallardan muntazam foydalanish tilni tabiiy va samarali o'rganishga yordam beradi. Shunday qilib, tinglab tushunish ko'nikmalarini

⁴Sharipov, Sh.S. (2020) – Ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlar, Toshkent, 2020, 33-b., 90-b.

⁵Vandergrift, L., & Goh, C. (2012) – Teaching and Learning Second Language Listening, Routledge, New York, 2012, 23-b., 67-b.

rivojlantirish jarayonida podkastlar va audio matnlardan foydalanish nafaqat til o'qitishda samarali vosita, balki talabalar nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish, mustaqil o'rganish va o'zlashtirish jarayonini rag'batlantirish uchun zarur vosita hisoblanadi. O'zbekiston va Yevropa olimlarining ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, audio materiallar bilan ishlash samaradorligi darsning mazmuni, talabalarning qiziqishi va strategik yondashuv bilan bevosita bog'liq. Shu bois, chet tilini o'qitish jarayonida podkastlar va audio matnlar integratsiyalashgan holda qo'llanilishi tavsiya etiladi. Bundan tashqari, audio materiallardan foydalanishni tizimli va bosqichma-bosqich rejalashtirish muhimdir. Masalan, darslar boshlanishida oddiy va qisqa matnlar, so'ngra murakkab va uzun podkastlar tanlanishi kerak. Talabalar tinglagan matnlarni qisqa bo'laklarga ajratib, asosiy va yordamchi ma'lumotlarni aniqlash mashqlarini bajarishlari tavsiya etiladi. Shu bilan birga, o'quvchilar eshitgan matn bo'yicha yozma yoki og'zaki xulosalar chiqarishlari, savol-javob mashqlari orqali nutqni mustahkamlashlari mumkin. Shuningdek, Krashen eshitish orqali tilni o'zlashtirish nazariyasi doirasida tinglab tushunishning muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar muntazam ravishda eshitish faoliyati bilan shug'ullansa, nutq va lug'at boyligi tabiiy tarzda rivojlanib boradi.⁶

Podkast va audio matnlarni tanlashda mavzularni talabalarning qiziqishiga moslashtirish dars samaradorligini oshiradi. Masalan, yoshlar orasida ommabop mavzular, ijtimoiy hayotga oid voqealar yoki ilmiy-texnikaviy sohalar bilan bog'liq materiallar qiziqishni kuchaytiradi. Bundan tashqari, audio matnlar bilan ishlash jarayonida talabalar o'z nutqini qayd etish, talaffuzni takrorlash va intonatsiyani yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tarzda, tinglab tushunish nafaqat passiv qabul qilish jarayoni sifatida qolmay, balki faol va interaktiv faoliyatga aylanadi. Shuningdek, o'qituvchilar audio materiallardan foydalanish jarayonida **baholash va monitoring tizimini** joriy qilishi tavsiya etiladi. Masalan, talabalarning tinglab tushunish darajasi muntazam testlar, qisqa insholar, tahliliy savollar orqali aniqlanishi mumkin. Bu o'quv jarayonida zaif tomonlarni aniqlash va ularni mustahkamlashga yordam beradi. Podkast va audio matnlar yordamida o'quvchilar turli kontekst va mavzularni tahlil qilishni o'rganib, kommunikativ va nutqiy malakalarini kengaytiradilar.

Xulosa: Yakuniy xulosaga kelsak, tinglab tushunish ko'nikmasi chet tilini o'qitish jarayonida markaziy o'rin tutuvchi, talabalar nutqiy va kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan muhim til ko'nikmalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tinglab tushunish faqatgina eshitilgan nutqni idrok etish bilan

⁶Krashen, S. (1985)– *Principles and Practice in Second Language Acquisition*, Oxford: Pergamon Press, 1985, 21-b., 55-b.

cheklanmay, balki o'quvchilarning tahliliy fikrlashi, mantiqiy xulosalar chiqarishi, kontekstni anglash hamda real muloqot vaziyatlarida til birliklaridan to'g'ri foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi. Ayniqsa, podkastlar va audio matnlar kabi autentik audio resurslardan foydalanish talabalarni tilning tabiiy muhitiga yaqinlashtirib, ularning real nutq tezligi, talaffuz, intonatsiya va turli aksentlarga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Tadqiqot davomida aniqlanganki, podkastlar qisqa, mazmunli va dolzarb bo'lgani sababli talabalar motivatsiyasini oshiradi, dars jarayonini jonlantiradi hamda mustaqil o'rganishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Audio materiallar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarni faol tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, ularni muhokama qilish, savol-javoblar orqali fikr bildirish va eshitilgan ma'lumotni qayta ishlashga undaydi. Bu esa nutqiy faollikni oshirish bilan bir qatorda, leksik va grammatik bilimlarning amaliy mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, audio materiallarni tanlash va qo'llashda metodik yondashuvning to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Materiallarning talabalarining yosh xususiyatlari, til darajasi va qiziqishlariga mos bo'lishi, ularning bosqichma - bosqich murakkablashtirilishi tinglab tushunish ko'nikmasining samarali rivojlanishini ta'minlaydi. Baholash va monitoring tizimining joriy etilishi esa o'quvchilarning individual yutuqlari va kamchiliklarini aniqlashga, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirishga imkon beradi.

Umuman olganda, podkastlar va audio matnlardan tizimli va maqsadli foydalanish chet tilini o'qitishda nafaqat samarali metodik vosita, balki talabalar nutqiy, lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini har tomonlama rivojlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy chet tili darslarida audio resurslarni integratsiyalashgan holda qo'llash, ularni an'anaviy va innovatsion metodlar bilan uyg'unlashtirish til o'rganish jarayonining sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Krashen, S. D. Principles and Practice in Second Language Acquisition. Oxford: Pergamon Press, 1982.
2. **Jalolov, J.J. (2012)** – *Chet tillarni o'qitish metodikasi*, Toshkent: O'qituvchi, 2012.
3. To'xtaxo'jayeva, M.O. (2018) – Xorijiy tilni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Toshkent, 2018.
4. Rost, M. Listening in Language Learning. London: Longman, 2011.
5. Эрнazarова, М., & Жабборова, Э. (2022). Педагогические технологии на уроках русского языка. Общество и инновации, 3(4/S), 251-256.
6. Ernazarova, M. N. (2022). Linguoculturological aspect of language learning in national groups.

7. Ernazarova, M. N. (2025). S. Esenin and ErkinVohidov: Linguo-Cultural Features of the Concept of Homeland and Native Land. European International Journal of Philological Sciences, 5(02), 15-18.
8. Norboevna, E. M., &Leonodovna, M. N. (2023). The concept of Homeland and Fatherland in the poetry of Sergei Yesenin and ErkinVakhidov. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 21, 23-27.
9. Richards, J. C. Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge: Cambridge University Press, 2008.
10. Harmer, J. How to Teach English. London: Longman, 2007.
11. Sharipov, Sh. Chet tillarni o'qitishda audio materiallardan foydalanishning metodik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

INTERNET MA'LUMOTLARI:

12. <https://www.bbc.co.uk/learningenglish>
13. <https://www.britishcouncil.org/english/business/apps/learnenglish-podcasts>
14. <https://learnenglish.britishcouncil.org/en/listen-and-watch>